

O'zbekistonda tarixiy shaharlarning turizm salohiyati

Rofeyeva Ruxshona Shavkatovna

“Ipak yo'li turizm va madaniy meros” xalqaro universiteti o'qituvchi,

Komilova Halima Xamidovna

“Ipak yo'li turizm va madaniy meros” xalqaro universiteti,

“turizm va mehmondo'stlik” yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy meros va zamonaviy imkoniyatlarning o'zaro uyg'unligi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tarixiy-madaniy boyliklarni asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Turizm va ta'lim sohalarida bu uyg'unlikning amaliy natijari ko'rsatilib, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Milliy meros, zamonaviy imkoniyatlar, turizm, madaniyat, innovatsiya, ta'lim, rivojlanish, an'analar, yosh avlod, iqtisodiy samaradorlik.

Annotation: This article highlights the harmony between national heritage and modern opportunities, as well as their role and significance in the development of society. It also analyzes the issues of preserving historical and cultural wealth while effectively utilizing modern technologies and innovations. The practical results of this harmony in the fields of tourism and education are demonstrated, and the importance of educating the younger generation in the spirit of national values is substantiated.

Keywords: National heritage, modern opportunities, tourism, culture, innovation, education, development, traditions, young generation, economic efficiency.

Аннотация: В данной статье рассматривается гармония между национальным наследием и современными возможностями, а также их роль и значение в развитии общества. Также анализируются вопросы сохранения историко-культурного богатства наряду с эффективным использованием современных технологий и инноваций. Показаны практические результаты этого взаимодействия в сферах туризма и образования, а также обоснована актуальность воспитания молодого поколения в духе национальных ценностей.

Ключевые слова: Национальное наследие, современные возможности, туризм, культура, инновации, образование, развитие, традиции, молодое поколение, экономическая эффективность.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq o'zining tarixiy ildizlarini asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan ham dadil odimlamoqda. Ayniqsa, milliy meros va zamonaviy imkoniyatlar uyg'unligi jamiyat rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu ikki tushuncha bir-biriga qarama-qarshi emas, aksincha, o'zaro boyituvchi va to'ldiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy meros-tarixiy taraqqiyotning o'tmishiga aylangan boshqichida muayyan millatning ajdodlari aql-zakovati, qobiliyati va mehnati bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuini ifodalovchi tushuncha. Har bir millatning milliy merosi o'sha millat tomonidan yaratilgan moddiy, manaviy va boshqa barcha turdagi merosini qamrab oladi. Ularning ayrimlari umumjahon xarakteriga ega bo'lsa, ba'zilari shu millat e'tiboriga meros sanaladi. Milliy meros millatning tafakkuri, dahosi, dunyoqarashi, yaratuvchanlik salohiyatining mahsulidir. Ularsiz yaratilgan har qanday turdagi mavjudlik milliy meros darajasiga ko'tarila olmaydi va tarixiy davr davomida yo'q bo'lib ketadi. Milliy meros millat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelib, millatning bevosita o'zi bilan bog'liq bo'lgan boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham u millatning o'z kelajagini yaratishda tayanch va tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi.

Milliy meros quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- 1) milliy urf-odat, an'ana, marosim, qadriyatlar;
- 2) dunyoqarash;
- 3) turli rasm-rusumlar;
- 4) dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan kashfiyotlar;
- 5) millatdan yetishib chiqqan allomalar va ular yaratgan asarlar;
- 6) davlatchilik;
- 7) milliy-madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar va hokazo.

Ularning har biri millat vakillari sa'y-harakatlari bilan asrlar davomida shakllantiradi va keying avlodga meros sifatida qoldiriladi. Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar millat hayotining muayyan davrida uning kundalik turmushida yuzaga keladi. Ular avloddan-avlodga o'tib, kundalik hayotda takrorlanib, millat vakillarining xatti-harakatlari, xulq-atvori va ko'nikmalarida o'z ifodasini topadi. Milliy an'analar millatning ko'p asrlik hayotida yuz beradigan turli tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati negizida atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan-avlodga o'tib taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar tafakkuri, orzu-o'ylari, tajribali, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan. Milliy urf-odat va an'analarning uzoq muddat davomida nisbatan saqlanuvchanligi va ayni paytda, kundalik turmush hayotida takrorlanuvchanligi milliy merosning tarkibiy qismi bo'lishini ta'minlaydi. Ularning nisbatan uzoq vaqt amal qilidhi, kundalik turmush va hayotda ko'p ishtirok qilishi millat birligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali millat vakillari o'zaro ma'naviy yaqinlashib boradi hamda boshqa millatlarga xos bo'lmagan, faqat o'zlariga xos bo'lgan, o'z zamoniga mos keladigan yangi-yangi urf-odat va an'analarni shakllantirib boradi. Milliy qadriyatlar milliy ehtiyoji, maanfatlari, maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy nematlar majmuasini tashkil qiladi va milliy merosning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Milliy merosda millatga xos bo'lgan rasm-rusumlar ham muhim o'rin egallab, ular millat tarbiyasining ma'lum tizimida aniq urf-odat, an'ana va qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan muayyan, ramziy, ma'suliyatli harakat hisoblanadi. Rasm-rusumlar - millat fe'l-atvorining aniq maqsadini ko'zlovchi normalarni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Ularning xarakterli xususiyati shundaki, u aniq maqsadni amalga oshirish tomon qilinadigan harakat bo'lib, urf-odat, an'ana va qadriyatlar kabi shakllangan emas, balki shakllantirishga qaratilgan amaliy harakatlar majmuasini tashkil qiladi. Milliy merosning dunyo ahamiyatiga ega muhim qismi, fan, madaniyat, falsafa, texnika, texnologiya va boshqa sohalarda amalga oshirilgan kashfiyotlar, g'oyalar, asarlar, yuksak intellectual ma'naviy salohiyat sohiblari bo'lgan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek kabi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan. Bu kashfiyotlar, eng avvalo, o'zbek millatining milliy merosidir. Dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar, ularda mujassam bo'lgan tarixiy obidalar, yodgorliklar, milliy hunarmandchilik, shaharsozlik, kiyim-kechak namunalari va hokazolar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra, milliy meros millat tarixi salohiyati, kuch-qudrati va ayniqsa, kelajagining o'zga millatlar va jahon xalqlari ko'zgisida aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Samarqand shahrining turizm salohiyati: Samarqand – O'zbekistonning eng mashhur turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Bu shahar qadimda ilm-fan, savdo va madaniyat markazi bo'lgan. Registon markazi, Shohi zinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi kabi yodgorliklar dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qiladi. Samarqand bugungi kunda “Yangi O'zbekiston turizm darvozasi” sifatida e'tirof etilmoqda.

Buxoro shahrining turizm salohiyati: Buxoro- islom madaniyati va ilm-fan markazi sifatida mashhur. Shaharda 140dan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Ark qal'asi, Poikalon majmuasi va Labi Hovuz ansambli turistlar uchun asosiy diqqatga sazovor joylardir. Buxoro ziyorat turizmi uchun ham muhim markaz hisoblanadi.

Xorazm shahrining turizm salohiyati: Xorazm- shahar o'zining Ichan-qal'a majmuasi bilan mashhur bo'lib, u to'liq saqlanib qolgan qadimiy shahar hisoblanadi. Ushbu

hudud ham UNESCO ro'yxatiga kiritilgan. Xiva sayyohlarga o'rta Sharq shaharlari hayotini jonli tarzda his qilish imkonini beradi.

Toshkent shahrining turizm salohiyati: Toshkent- O'zbekiston poytaxti bo'lib, u tarixiy va zamonaviylik uyg'unlashgan shahar hisoblanadi. Bu yerda ko'plab muzeylar, madaniy markazlar va zamonaviy infratuzilma mavjud. Toshkent xalqaro transport tuguni sifatida ham turizm rivojida muhim rol o'ynaydi

Zamonaviy imkoniyatlar esa texnologik taraqqiyot, innovatsiyalar va yangi yondashuvlar orqali yaratilyotgan qulayliklar va rivojlanish yo'llaridir. Axborot texnologiyalari, raqamli xizmatlar, zamonaviy infratuzilma va ta'lim tizimidagi yangiliklar jamiyatning tez va samarali rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda insonlar qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Milliy meros va zamonaviy imkoniyatlarni uyg'unlashtirish ayniqsa turizm sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tarixiy obidalar zamonaviy texnologiyalar yordamida restavratsiya qilinmoqda, virtual sayohatlar tashkil etilmoqda, milliy hunarmandchilik mahsulotlari esa onlayn platformalar orqali dunyo bo'ylab targ'ib qilinmoqda. Bu esa nafaqat madaniyatni saqlash, balki iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan birga, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish muhimdir. Chunki kelajak aynan shu ikki yo'nalishni o'zida mujassam etgan yoshlar qo'lidadir. Ular o'z tarixini bilgan holda, zamonaviy dunyoda raqobatdosh bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy meros va zamonaviy imkoniyatlar uyg'unligi jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. O'tmishdan saboq olib, bugunning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali biz yanada porloq kelajak sari dadil qadam tashlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi- umumta'lim va oliy ta'lim muassalari uchun darslik.
2. "Ma'daniyatshunoslik asoslari"- o'quv qo'llanma.
3. Turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy maqolalar va tahliliy materiallar.
4. Internet manbalari (rasmiy saytlar va ilmiy platformalar)
5. O'zbekistonning turistik salohiyati: tahlil va takliflar
6. "O'zbekistonda madaniy turizm istiqbollari" ilmiy maqola
7. "Samarqand – Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" maqola
8. "O'zbekistonning tarixiy shaharlariga sayohat" ilmiy maqola